Biokimyo sohasidagi ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2020-yil 31-yanvar kuni Davlat geologiya va mineral resurslar qo’mitasida olimlar, yosh tadqiqotchilar, ishlab chiqarish vakillari va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari bilan o’tkazgan uchrashuvida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O’zR FA Bioorganik kimyo institutida Farmatsevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi rahbar xodimlari bilan uchrashuv tashkil qilindi. Uchrashuvda tibbiyot va farmatsevtika sohasida Institut tomonidan yaratilgan dori vositalari, ularning qo’llanilish sohalari, hozirgi holati va amaliyotga joriy etish bo’yicha ma’lumotlar berildi.

Shundan so’ng Farmatsevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi direktori S.Kariyev so’zga chiqib, respublikadagi mavjud farmatsevtik korxonalar, ularda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va yangi tashkil qilinayotgan Farmatsevtik klaster haqida gapirib o’tdi.

Uchrashuv davomida Institut xodimlari va Agentlik tomonidan ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish, ularning realizatsiyasini jadallashtirish maqsadida marketing sohasini jalb qilgan holda aniq rejalar tuzish va uni amalga oshirish bo’yicha fikr almashildi.